

TA'LIMNING YOSH VA PEDOGOGIK PSIXOLOGIYA FANIDA TUTGAN O'RNI .TARBIYA JARAYONINING PSIXOLOGIK MOHIYATI.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika
fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs
talabalari **Xushboqova Shahlo , Xolmamatova
Shahnoza, Xudoyberdiyeva Charos,
Xudoyberdiyeva Shahzoda**

Annotatsiya. Bo'lajak pedagoglar tomonidan psixik taraqqiyot mohiyati, unga bo'lgan turli qarashlar, psixik rivojlanish omillari va harakatlantiruvchi kuchlari, yoshni davrlashtirish haqidagi bilimlarni o'zlashtirilishini tashkil etish borasidagi bilimlarni tahlil qilish, shuningdek bu jarayonda ta'limning ahamiyatli jihatlariga e'tibor qaratishdan iboratdir.

Kalit so'zlar. Psixik rivojlanish, biologik omillar, ijtimoiy omillar, psixik taraqqiyot, ta'lim , tarbiya, psixologik mohiyati.

Tadqiqot maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi bo'lajak pedagoglar tomonidan psixik taraqqiyot mohiyati, unga bo'lgan turli qarashlar, psixik rivojlanish omillari va harakatlantiruvchi kuchlari, yoshni davrlashtirish haqidagi bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish. Shuningdek yosh va pedagogik psixologiyada ta'limning mohiyatini ochib berish , tarbiya jarayonining psixologik mohiyatini ko'rsatish.

Tadqiqotning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat.[1]

1. Ta'lim psixologik jarayon sifatida: Ta'lim shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchining psixologik rivojlanishiga ta'sir etuvchi murakkab jarayondir.

2. Yosh xususiyatlarini hisobga olish: Ta'lim jarayoni o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirilishi zarur.

3. Psixologik qonuniyatlardan foydalanish: Ta'lim jarayonida psixologik qonuniyatlar (diqqat, xotira, tafakkur, motivatsiya) inobatga olinishi lozim.

4. O'qituvchining psixologik tayyorgarligi: O'qituvchi o'quvchilarning psixologiyasini bilishi, ularga to'g'ri yondasha olishi va psixologik muammolarni hal qila olishi kerak.

5. Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi: Ta'lim har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

6. Tarbiya shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida: Tarbiya shunchaki axloqiy normalarni o'rgatish emas, balki shaxsning dunyoqarashini, qadriyatlarini va xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan murakkab jarayondir.

7. Tarbiya va yosh xususiyatlari: Tarbiya jarayoni bolaning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish bosqichlari va shaxsiy xususiyatlariga moslashtirilishi lozim.

8. Tarbiya uslublarining psixologik ta'siri: Tarbiya uslublari (avtoritar, demokratik, liberal) bolaning shaxsiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Demokratik tarbiya uslubi eng maqbul hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari bo'lajak pedogoglarda yosh va pedagogik psixologiyada tarbiya jarayonining aynan qaysi psixologik jihatlariga ahamiyat qaratishligi kerakligi haqidagi bilimlarni o'zlashtirishiga hamda ta'limda qo'llay olishiga erisha oladi.

Materiallar va usullar. Ushbu tadqiqotda shaxs rivojlanishiga oid psixologik va pedagogik ma'lumotlar tahlili keltiriladi. Psixik taraqqiyot bilan ta'limning o'zaro bog'liqlik tomonlari, tarbiyaning psixologik mohiyati umumlashtiriladi.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir. Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir. Inson ~ biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish sezgilarining, shuningdek, oliy nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatning ongli sub'ekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi.[2]

Ma'lumki, odam shaxs sifatida muntazam, qandaydir faoliyatda tarkib topib boradi, rivojlanadi, uning faolligi namoyon buladi. Agarda hayvonlar tevarakatrofdagi tashqi muhitga passiv moslashib, hayot faoliyatlarida tabiatdagi, ya'ni tashqi muhitdagi tayyor narsalardan foydalansalar, odam esa tevarakatrofidagi tashqi muhitga faol ta'sir ko'rsatib, uni o'z irodasiga bo'ysundiradi hamda o'zgartirib, o'z ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildiradi. Kuzatishlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldi-ki, odamdagi tug'ma, irsiy mexanizmlari uning psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi-yu, biroq uning mazmunini ham, shaxsiy fazilatlarini ham belgilab bera olmaydi. Ta'kidlash zarurki, muhit ham bola psixikasida rivojlantirishda muayyan rol o'ynaydi. Faqat, buning uchun bolani o'qitayotgan kishilarning ta'siri natijasida bola ana shu muhitni faol ravishda o'rganib olishi, tabiiydir.

Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izohlab beradi. Ulardan, birinchisi - inson tug'ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri;

- ikkinchisi - odamga uzoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim-tarbiyaning ta'siri;- uchinchisi - odamga tug'ma ravishda, tayyor holda beriladigan

nasliy xususiyatlarning ta'siridir. Ma'lumki, har bir odam o'ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muhitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya'ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg'ayadi, shakllanadi. Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a'zosi sifatida, ma'lum sinfning, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyandasi sifatida va nihoyat, tashkil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo'lgan muayyan jamoalarning faol a'zosi sifatida qatnashadi. Shaxsning mohiyati o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlari, ijodiy faolligining rivojlanish manbalari uning tevarakatofidagi ijtimoiy muxitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlarini, xarakteri, irodaviy sifatlarini, qiziqishlarini, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi.[3]

Tadqiqot natijalari. Ta'lim ikki tomonlama jarayon:

1-dan, o'quvchi tomonidan bajariladigan, boshqariladigan;

2-dan, o'quvchi tomonidan bajariladigan jarayondir.

Demak, ta'lim jarayoni o'rganish va o'rgatish, o'rganib olish va uni hayotga tadbiq etish xususiyati bilan izohlanadi.

O'rganish (o'qitish) – bu o'qituvchining o'quvchilarga bilim, ko'nikma va malakalar berish, ularda yangi haqiqatni ochishga qodir bo'lgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. O'rganish – bu o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni, qabul qilishlari jarayoni, o'zlarida bilish qobiliyatlarini, fikrlash operatsiyalari va harakatlarni tarkib toptirish jarayonidir. [4] Bu passiv mushohada jarayoni emas, balki o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga beriladigan bilim va malakalarni faol ravishda qayta ishlash jarayonidir. O'rganishning asosiy mohiyati shundaki, bunda – o'qish jarayonida o'quvchilar mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlardan foydalana olish ko'nikmasini o'z ichiga oluvchi aqliy va jismoniy

mexnat elementlarini o`ziga singdiradi. Ta`limning muvaffaqiyati o`quv materiallarning mazmunigagina, ta`lim usullarigagina emas, balki u ko`p jihatdan o`quvchining qanday o`qiyotganligini bilishga, ya`ni o`quvchining yosh xususiyatlariga, aqliy taraqqiyoti va faolligiga muvofiq malakalarni o`zlashtirish jarayonining psixologik asoslarini bilishga ham bog`liqdir. O`qish jarayoni – o`quvchining o`ziga xos xususiyatlariga ham, uning psixik rivojlanishining (aqliy, emotsional, irodaviy jihatdan) individual tavsifnomasiga, unda o`qishga nisbatan qaror topgan munosabatlariga, uning qiziqish havaslariga bog`liqdir. Boshqacha qilib aytganda, ta`lim jarayoni o`quvchiga nimani va qanday qilib o`zlashtirishning oddiy bir xil natijasi emas, ya`ni sirtidan ta`sir qiladigan shart-sharoitlarning oqibati emas, balki o`quvchining individual-psixologik xususiyatlariga bog`liq ravishda amalga oshiriladi. Ta`limni ijodiy o`zlashtirish, o`rganish, bilim egallash 3 omilga:

1. Nimani o`qitishga;
2. Kim o`qitadi va qanday o`qitishga;
3. Kimni o`qitishga bog`liq.

1-holda: o`qitish xarakteri o`zlashtirilayotgan materiallarga, uning mazmuniga va qanday tizimda etkazib berilayotganligiga bog`liq.

2-holda: a) o`qituvchining uslubiy mahoratiga; b) ish tajribasiga; g) uning bilimiga bog`liq;

3-holda: a) kimni, qanday o`quvchini o`qitishga; b) psixik rivojlanishining individual tavsifnomasiga; v) qiziqish va havaslariga bog`liqdir.[5]

O`rganish – bilimlarni o`zlashtirish informatsiya olish, esda saqlash va uni anglab qolishnigina emas, balki bilimlarni keyinchalik, o`quv ishida shuningdek, mexnat jarayonida, umuman turmushga tadbiq qilish qobiliyatiga ega bo`lishidir. Bilimlarni o`rganib olish, uni o`zlashtirish quyidagi psixologik komponentlar asosida bo`ladi:

1. O`quvchilarning o`qishga ijodiy munosabatda bo`lishi;
2. Material bilan bevosita tanishish jarayoni;

3. Olingan materialni faol ravishda qayta ishlash jarayoni bo'lgan fikrlash (tafakkur)

4. Qabul qilingan va ishlab chiqilgan axborotni esda olib qolish va esda saqlash jarayoni. [6]

Ilmiy tushunchalar egallash, muayyan faktlarni turmushdagi narsalar orasidagi bog'lanishlarni idrok qilish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtira olish va xulosalar chiqara bilish demakdir. Boshlang'ich sinfdanoq tabiat va jamiyat hayotidagi hodisalar qonuniyatlarni ochib berish va ularni o'quvchi ongiga singdirish jarayonida o'quvchilarni chuqur ilmiy bilimlar bilan qurollantirib borish, maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun o'qituvchi o'z fanini qanchalik sodda usulda bayon qilmasin, u chuqur ilmiy bulishni talab qiladi. Ta'limning ilmiy bo'lishi to'g'risidagi talab o'qituvchining o'quv materiali mazmunigina emas, balki uning shu materialni yoritib berish xarakteriga va o'quvchilarning bu bilimlarni o'zlashtirib olishlariga ham bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchilarni o'ylashga, fikr yuritishga o'rgatishi zarur. O'rganilayotgan voqealar va narsalarni ular haqidagi og'zaki axborotlarni idrok etish jarayoni, tasavvurlar, obrazlar tushunchalarni tarkib toptirish jarayoni belgilarni taqqoslash, chogishtirish, qismlarga ajratish, umumiy jihatlarni topish, analiz va sintezni o'z ichiga oluvchi aktiv tafakkur shuni talab qiladi. Bilimlarni o'zlashtirish, tushunchalar hosil qilish jarayoni bu bilan tugallanmaydi. O'quvchilar bilimlarni to'g'ri o'zlashtirganliklarini, ular olgan bilimlarni yangi voqealarni bilib olishga qanday tadbiiq eta olishlarini, yangi fakt va misollarni tushuntirishga, yangi ob'ektlarning ma'lum xossalarini topishga, amaliy vazifalarni hal etishga qanchalik tadbiiq eta olishlarini aniqlash yo'li bilan tekshirish talab qilinadi. Natijada o'quvchilar o'zlashtirgan bilim va tushunchalarning haqiqiy ekanini tasdiqlaydilar va ular ongida tarkib topayotgan tasavvurlar, tushunchalar voqelikni qanchalik to'g'ri aks ettirishni aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, quvchilarda texnika ixtirochilik, sanoat, qishloq xo'jaligi masalalariga bo'lgan qiziqishlar, modellar,

konstruktsiyalar yasash, elektrotexnika bilan shug'ullanish, dala ishlarida qatnashish kabilar ijodiy tafakkurni shakllanishi va rivojlanib borishida eng asosiy usullardir. Hozirgi kunda o'quvchilarning bilish faoliyatini faol, mustaqil, ijodiy tafakkurini avj oldirish maktab ta'limining eng muhim vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Demak, ta'limning asosi – o'qituvchining o'quvchilarga etkazadigan mo'l-ko'l axborotini esda olib qolish emas, balki bu axborotni olish jarayonida o'quvchilarning o'zlari aktiv ishtirok etishi, ularning mustaqil fikr yuritishini, mustaqil bilim olish qobiliyatini, ma'lumotni oshirish qobiliyatini asta-sekin shakllantirib borishdan iborat bo'lmog'i lozim. (nazorat savollarini yozish kerak). Inson shaxsning psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] DO'STMUHAMEDOVA SH A ,TILLASHAYXOVA X A,BAYKUNUSOVA G, ZIYAVITDINOVA G. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.(O'zbekiston respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy pedagogik o'quv yurtlari uchun darslik) 2-kitob.T: Toshkent-2020.
- [2] Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1991.
- [3] G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent. O'qituvchi. 2010.
- [4] G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya.. Toshkent. O'qituvchi. 2010.
- [5] Usmanova E.Z. O'quvchilarning mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? – “Pedagogika va yosh psixologiya” ilmiy-ommabop seriya, 2000.
- [6] Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlonov M. Yosh va pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2007.